MAKTABGACHA YOSHDAGI IQTIDORLI BOLALAR BILAN ISHLASH TA'LIM TEXNOLOGIYASI

Xudoyberdiyeva Durdona Bahodir qizi, Guliston Davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

Anotatsiya. Ushbu maqolada keltirilgan manbalar iqtidorli bolalar bilan ishlash va uni tarkibiy qismlarini o'rganish orqali,bolalarda iqtidorni namoyish etishga zamin yaratadi va asosiy yo'nalishlarni takomillashtirish bo'yicha ilmiy qarashlar, yondashuvlar, usullarni shakllantirish haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: iqtidor, texnologiya, iste'dod, demokratiya, strategiya,barqaror, davlat, iqtidorlilik.

ОБРАЗОВАТЕЛЬНАЯ ТЕХНОЛОГИЯ РАБОТЫ С ОДАРЕННЫМИ ДЕТЬМИ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА

Аннотация. Ресурсы, представленные в данной статье, через работу с одаренными детьми и изучение ее компонентов создают основу для проявления одаренности у детей и говорят о формировании научных взглядов, подходов, методов совершенствования основных направлений.

Ключевые слова: талант, технология, талант, демократия, стратегия, устойчивость, государство, одаренность.

EDUCATIONAL TECHNOLOGY OF WORKING WITH GIFTED PRESCHOOL CHILDREN

Anotation: the resources presented in this article provide the basis for the demonstration of giftedness in children by working with gifted children and studying its components, and talk about the formation of scientific views, approaches, methods for improving the main directions.

Keywords: talent, technology, talent, democracy, strategy, sustainable, state, giftedness.

Kirish. O'zbekistonda iqtidorli bolalarni qo'llab-quvvatlashning huquqiy-me'yoriy asoslarini takomillashtirish, iqtidorli bolalarni o'qitish va tarbiyalashning innovatsion tizimini joriy etish, bu borada oila, ta'lim muassasasasi va yoshlar tashkilotlarining hamkorligini yo'lga qo'yishga qaratilgan islohotlar ilg'or xorijiy tajribalar asosida iqtidorli bolalarni tanlashning diagnostik apparatini ishlab chiqish, iqtidorli bolalar bilan ishlashning ijtimoiy-pedagogik texnologiya va metodlarini joriy etish imkoniyatini oshirmoqda.

Xalq ta’limi tizimini 2030- yilgacha rivojlantirish konseptsiyasida “iqtidorli bolalar va iste’dodli yoshlar bilan aniq maqsadga yo‘naltirilgan ishlarni amalga oshirish tizimini yaratish, “Prezident maktablarini” tashkil etish” [1] kabi vazifalar belgilangan. Bu esa iqtidorli bolalar bilan ishlashning pedagogik-psixologik xususiyatlari va iqtidorli bolalarni tanlash va rivojlantirish mezonlarini aniqlashtirish, iqtidorli bolalar bilan ishlashning ijtimoiy-pedagogik tuzilmasini va tashkiliy-metodik tizimini takomillashtirish zaruratini izohlab beradi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son, 2018-yil 27-iyundagi “Yoshlar–kelajagimiz” Davlat dasturi to‘g‘risida”gi PF-5466-son, 2019-yil 29-apreldagi «O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi PF-5712-son Farmonlari, 2018-yil 14-avgustdagi “Yoshlarni ma’naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta’lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3907-son Qarori hamda boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Iqtidor – bu inson psixikasining butun umr davomida tizimli rivojlanuvchi sifati bo‘lib, insonning boshqa odamlarga nisbatan bir yoki bir necha sohada yuqori natijalarga erishish imkoniga ega ekanligi bilan belgilanadi [2; 7–9-b].

Psixologik lug‘atlarda “iqtidor” tushunchasi quyidagicha ta’riflanadi:

Iqtidor bu– faoliyatning muvaffaqiyatli amalga oshirilishini ta’minlaydigan qobiliyatlarning o‘ziga xos uyg‘unlashuvidir;

iqtidor bu – insonning imkoniyatlari doirasi, faoliyatlari darajasi va o‘ziga xosligini belgilaydigan umumiy qobiliyatlar;

iqtidor bu – aqliy potentsial, ta’lim olish qobiliyati va bilish imkoniyatlarining bir butun individual tavsifi;

iqtidor bu – tabiat tomonidan in’om etilgan qobiliyatlar, ularning tabiiy asoslari o‘ziga xosligi va namoyon bo‘lishi darajalari;

iqtidor bu – iste’dodlilik, faoliyatda yuqori natijalarga erishish uchun ichki imkoniyat va sharoitlarning mavjudligi[3; 247-b].

Ushbu tavsiflardan kelib chiqqan holda, shuni ta’kidlash mumkinki, iqtidor asosida umumiy intellektual va insonning bilish imkoniyatlarini belgilaydigan, tabiat tomonidan in’om etilgan qobiliyatlar, biror bir faoliyatda (masalan, ta’lim, ijodiy, kasbiy, ilmiy) muvaffaqiyatga erishishni ta’minlaydigan maxsus qobiliyatlar yotadi.

Bolalarning iqtidori rivojlanishida ularning tug‘ma qobiliyat va iste’dodining o‘rni muhim ahamiyatga ega. Tug‘ma qobiliyatga ega bo‘lgan yoshlar kattalarning har bir ta’limiy, tarbiyaviy va kasbiy ta’limotlarini tez ilg‘ab oladilar va uni faol o‘zlashtirib hayotga tatbiq eta oladilar. Lekin barcha yoshlarga bu qobiliyat va iste’dod, tug‘ma talant nasib etavermaydi. Shunday ekan, qobiliyatni shakllantirib, yoshlarning iste’dodini oshirib borish, birinchi navbatda pedagoglarga va keng jamoatchilik zimmasiga ya’ni oila, mahalla, ta’lim muassasalari va korxona, tashkilot, ustaxona boshqaruvchilari zimmasiga tushadi [4; 76–86-b].

Iqtidorli bolalar bu umumiy va maxsus qobiliyatlarni o‘zida mujassam etgan bolalardir. Ular boshqa bolalardan quyidagi belgilari bilan ajralib turadilar:

- qiziquvchanligi;
- doimo turli savollarga javob izlashlari;
- utqi, tafakkuri, xotirasining tez rivojlanishi;
- erta yoshdanoq musiqa, rasm chizish, kitob o‘qish, matematikaga qiziqishi;
- yuqori darajadagi bilish faolligi va o‘quv faoliyati;
- masalalarning echimini topishda maqsadga intiluvchanlik va originallik;
- tafakkurning unumdorliligi.

Pedagogik-psixologik nuqtai nazardan umumiy va maxsus qobiliyat yosh davrlarini inobatga olgan holda muhim jihatlarga bog‘liq. Ilk yosh davrlari – maktabgachava kichik maktab yoshida iqtidor umumiy hamda universal qobiliyat sifatida qaralishi va rivojlanishi mumkin. Vaqt o‘tishi bilan bu “umumiy qobiliyat” o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib ma’lum bir yo‘nalishni belgilaydi. Ayni vaqtda bu iqtidor bola tomonidan qay darajada namoyon bo‘layotganligiga e’tibor qaratish kerak bo‘ladi. Aniq namoyon bo‘lgan, ya’ni psixolog, pedagog, ota-onalar tomonidan e’tirof etilgan qobiliyat “dolzarb”, atrofdagilar payqamaydigan qobiliyat “potentsial”qobiliyat deyiladi.Iqtidorlilik – bu:

1. Biror faoliyatni muvaffaqiyatli bajarishni ta’minlovchi qobiliyatlarning sifat jihatidan o‘zaro bir-biriga mos kelishidir. Ma’lum bir tuzilmaga ega qobiliyatlarning o‘zaro birgalikdagi harakati, ba’zi qobiliyatlar o‘rniga boshqa qobiliyatlarning rivojlanishi hisobidan amalga oshadi.

2. Shaxs imkoniyatlari kengligini namoyon etuvchi umumiy qobiliyatlar yoki qobiliyatlarning umumiy komponentlari, inson faoliyatining darajasi va o‘ziga xosligidir.

3. Aqliy salohiyati yoki intellekti, bilish imkoniyatlari va o‘qishga bo‘lgan moyilligining va qobiliyatlarining yaxlit individual tavsifidir.

4. Tabiiy qobiliyatlarning belgilari majmuasi, ularning namoyon bo‘lish darajasi va qobiliyatlarning o‘ziga xosligidir.

5. Iqtidorlilik – ma’lum bir faoliyat jarayonida muvaffaqiyatlarga erishish uchun ichki imkoniyatlarning mavjudligi.

Demak, iqtidorlilik sifat jihatidan o‘ziga xos qobiliyatlar majmui bo‘lib, insonning yoki ma’lum bir insonlar guruhi ijodiy imkoniyatlarini belgilangan

darajadan etukligini ifoda etadi. Iqtidorlilik, bir tomondan, aqliy rivojlanish darajasi, aqliy, ruhiy sifatlarni, boshqa tomondan esa – bu qobiliyatlarning yo‘nalishiga qarab bilimning turli sohalarini o‘zlashtirish bo‘yicha farqlanadi.

Iqtidorlilik “imkoniyat” va “reallik” kategoriyalariga bog‘liq. Insonning iqtidorliligi – bu faqatgina bilim va qobiliyatlarga ega bo‘lish imkoniyati. Bu bilim va qobiliyatlarning egallanishi ko‘plab shart-sharoitlarga bog‘liqdir.

Iqtidorlilik–faoliyatni muvaffaqiyatli bajarilishini ta’minlovchi qobiliyatlarning sifatli o‘ziga xos yig‘indisi; aqliy salohiyat yoki intellekt; bilish imkoniyatlari va o‘rganishga bo‘lgan qobiliyatlarning individual tavsifi. Iqtidorli o‘quvchi o‘zining intellekt darajasi, bilish imkoniyatlari, qobiliyati bilan boshqa bolalardan ajralib turuvchi individual salohiyat egasidir.

Intellektual qobiliyat – to‘g‘rilik nuqtai nazaridan aniq vaziyatlarda intellektual faoliyatning muvafaqqiyatini tavsiflovchi intellekt xususiyati hamda vazifalarni hal etish jarayonida axborotlarni qayta ishlash tezligi, g‘oyalarning originalligi va xilma-xilligi, ta’lim olganlikning yuqori sur’ati va chuqurligi, bilish usullarida individuallikning aks etishidir.

Xulosa qilib aytganda, mamlakatimizdagi iqtidorli bolalarning intellektual imkoniyatlarini rivojlangan davlatlar tajribalariga tayangan holda tashkil etish mamlakat taraqqiyotini ta’minlashga mustahkam zamin yaratadi.

Fodalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-avgustdagi PQ-3907-son “Yoshlarni ma’naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta’lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori. // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 15.08.2018 y., 07G‘18G‘3907G‘1706-son.

2. Рабочая концепция одеренности / Науч. ред. В.Д.Шадрикова. – М., 2002. – 7-9 с.

3. Psixologiya: Словарь Под общ. ред. А. В. Петровского, М. Г. Ягошенкого. – М., 1990. – 247 с.

4. Войтенко Т. Обучение через саморазвитие и самовоспитание // Директор школы. – М., 2000. №3. – С. 76-86.